



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'RGATISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI

**Normatova Nilufar Komilovna**

TerDPI Maktabgacha ta'lim  
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

### **Annotatsiya**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili leksikasini o'rgatishning didaktik ta'minotiga nimalar kirishi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga chet tilini o'rgatishni qanday tashkil etish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha yosh, didaktika, o'yin, ingliz tili, bola, ta'minot, rivojlanish, usul, ta'lim-tarbiya.

Hozirgi kunda ingliz tilini maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga o'yin orqali o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xalqimizda «Til bilgan – el biladi», deb bejiz aytilmagan. Prezidentimizning 2012yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori bu maqsadni ro'yobga chiqarish va shu doirada maktabgacha ta'lim muassasalaridanoq bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish va maktab ta'limiga tayyorlab borish masalasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o'rgatishda ta'lim-tarbiya jarayonini didaktik loyihalashtirish dolzarb masala bo'lib, unda ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurdir.

Bolalarda o'yin orqali diqqat, xotira va idrokni qiyinchiliklarsiz shakllantirish mumkin. Chunki bola o'yin jarayonida o'zini erkin his etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari o'yinlar jarayonida ingliz tilini o'rganar ekan, albatta, ma'lumotlarning ko'rgazmalilik tamoyillariga amal qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rnini beqiyosdir. Ta'lim-tarbiya davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passive tarbiyalanuvchilarni ham ta'lim-tarbiyalarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda tarbiyalanuvchilar





o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi. Quyida Sizga ingliz tili ta'lim-tarbiyalari davomida o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi o'yinlarni taqdim etiladi.

**Pictionary**-Ko'pchilik ingliz tilida so'zlashuvchilar Pictionary, rasm chizish o'yini bilan yaxshi tanish. Rasm chizish maqsadi uchun siz oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanishingiz mumkin. Sinfni 2 guruhga bo'lib oling va har bir jamoa uchun doskadaning bir tomonida jadval chizing. Siz jamoalarning ballarini shu yerga yozib borasiz. A jamoadan bir kishi chiqadi. Va ko'pgina teskari o'girilgan so'zlardan bittasini tanlaydi va shu so'zni doskaga chizib beradi. Va boshqalar topishi kerak bo'ladi. So'zni birinchi bo'lib to'g'ri topgan jamoaga ball beriladi. 10 ball olgan jamoa g'olib hisoblanadi.

**Charades**-Charades o'yini Pictionary o'yiniga o'xshash lekin asosiy farqi bunda so'z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o'yin tarbiyalanuvchilariz sust, zerikkan va uyquasi kelgan vaqtlarda juda qo'l keladi. Ularni uyg'oting va harakatlantiring! Tarbiyalanuvchilar tanlashi uchun bir necha to'rtburchak qilib qirqilgan qog'ozlarga so'zlar yozing. Fe'llarni ifodalash ancha oson. Lekin siz biroz murakkabroq, shunday bo'lsada hamma tarbiyalanuvchilar biladigan so'zlardan foydalanishingiz mumkin. Sinfni ikki jamoaga bo'ling. Va har bir jamoadan bir tarbiyalanuvchi so'z yozilgan qog'ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqa ichida o'sha so'zni topishi kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun, bir ball beriladi. 10 ball jamlagan jamoa g'olib hisoblanadi.

Mamlakatimizda yosh avlodning har tomonlama kamol topishida ingliz tilining o'ri beqiyosdir. Qolaversa, ingliz tilini o'qitishda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi ingliz tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, ehtiyojini to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirish uchun turli xil interaktiv o'yin metodlaridan foydalanish orqali maktabgacha yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish





muammosi amaliy yechimini topadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish bo'yicha olib boriladigan tadqiqot ishlari natijasi va samaradorligi ta'lim mazmuni, maqsadi va vazifalariga mosligi, uning ilmiy jihatdan asoslanganligi, izchilligi bilan bog'liqligi, shuningdek mazmunga mos metodlar, shakllar va vositalar majmuasining tanlanishi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy shart – sharoitlardan biri bolalarning ingliz tiliga nisbatan ijobiy munosabatini rag'batlantirish va turli – tuman ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu vositalar ichida pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan didaktik o'yinlar muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, ingliz tili mashg'ulotlari mavzusiga mos didaktik va kompyuter o'yin turlarining tanlanishi, o'yin texnologiyasida o'rganiladigan material mazmunining o'ziga xosligi va o'quv topshiriqlarining hisobga olinishi, tarbiyalanuvchilarning o'yin faoliyatini tashkil qilishda o'yin tuzilishining e'tiborga olinishi ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash vositasiga aylandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2019 y.
2. N. V. Karpov, I. V. Raxmanovlarning «Boshlang'ich bosqichda chet tilini o'qitish metodikasi» kitobi 1956-yil
3. Ivanova M.V. Bolalar uchun ingliz tili. - M.: AST: Astrel, 2019 y.
4. Trofimova G.S. Chet tillarni o'qitishning pedagogik asoslari (Subaktika didaktikasi). - Izhevsk: Udmurt universiteti nashriyoti, 2009 y.

